



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



№7
2025

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 480 sahifa,
1-iyul, 2025-yil.

BOSH MUHARRIR:

Umarova H. O'. – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti rektori

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik

Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik

Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor

Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor

Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor

Shermuhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor

Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor

Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor

Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor

Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)

Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)

Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)

Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)

Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)

Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)

Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent

Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor

Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor

Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor

G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)

Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayeva F.O. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis instituti dotsenti

Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor

Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)

Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalar tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)

Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent

Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori

Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari

Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Umarova H. O'. – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Rector of the Nizami National Pedagogical University of Uzbekistan

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F.O. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – doctor of philosophy (PhD) in psychology

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **№C-5669363** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Konvergent tahririyat mas'uliyati: Yangi O'zbekistonni barpo etish jarayonini yoritish tendensiyalari	16
Doniyorov Salim Musurmonovich	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy bilimlarini shakllantirish.....	23
Nazarov Odil Omanqulovich	
"Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasi"da ijtimoiy-pedagogik hamkorlikning o'rni	27
Abirova Umida Nazarovna	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda uchraydigan nutq nuqsonlarini oldini olish va uning ahamiyati	30
Akramov Dostonbek Ikromjon o'g'li	
Pedagogik jarayonda axloqiy qarashlarni shakllantirish usul va vositalari	34
Xudoykulova Shaxlo Mamaniyozovna	
Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilarining ijodkorligini rivojlantirishda ta'limiy o'yinlarning ahamiyati	38
Salimova Dilmira Farxodovna	
Aholining iqtisodiy axborot savodxonligini oshirishdagi muammo va kamchiliklar	41
Rajabov Asliddin Xolmirzayevich	
Favqulodda vaziyatlar yo'nalishi ta'limida muloqotning ahamiyati.....	44
Boltayev Baxtiyor Yunusovich	
Biologiya ta'limi va raqamli texnologiyalar	48
E. Po'latova	
Boshlang'ich ta'limga tayyorlov guruhi bolalarini kasbga yo'naltirishda stem yondashuvining ahamiyati ...	51
Egamova Ravshanoy Surobjonovna	
O'zbekiston TIMSS natijalarini qanday yaxshilashi mumkin?	
Innovatsion ta'lim yondashuvlari va samarali strategiyalar.....	55
G'ayniddinov Shayxislom Tolibjon o'g'li	
Nutq kamchiliklarini bartaraf etishda mutaxassislar hamkorligi	60
Isayeva Mushtariy Alisher qizi	
Developing Student's Critical Skills Through Technology-Enhanced English Lessons	63
Mavlonova Dildora Shuxrat qizi	
Bahrom Ro'zimuhammad she'rlarini o'qitishda integratsiya usulidan foydalanish	67
Nomozova Dilobar Suyun qizi	
Aksiologik yondashuvlar asosida bo'lajak pedagoglarda altruizm ko'nikmalarini shakllantirish: bosqichlar va tamoyillar	72
Norboyeva Moxigul Shavkat qizi	
3D Modeling of Virtual Chemical Laboratories	75
Qayumov Jamshid Ma'rufjon o'g'li	
Fostering Metacognitive Skills in Efl Learners Through Ai-Supported Instruction: a Review of Recent Literature	80
Ruzieva Maftuna	
Onlayn va gibril ta'lim sharoitida mashinasozlik texnologiyasi faniga qiziqishni oshirishning nazariy asoslari.....	85
Sarimsakova Soxibaxon Raxmonjanovna	
Loyihalashtirilgan integral darslar samaradorligi (9-sinflar uchun "Metallar va ularning umumiy xususiyatlari" mavzusida)	88
Sharipova Hakima Shavkatovna	
Metacognition and Self-Regulated Learning	92
Turayeva Nazira Ibragimovna	
Методические возможности совершенствования обучения научной письменной речи на основе коммуникативно-деятельностного подхода	95
Меденцева Наталья Петровна	
Transformatsion jarayonlarda tibbiyot oliy ta'lim muassasalari raqobatbardoshligini oshirish strategiyalari	100
Jonibekov Jasur Jonibekovich	




O'zbek milliy musiqasi: boy madaniyat va san'atning ajralmas qismi.....	105
Rustamova Maxsuma Farxodbek qizi	
Sharq va G'arbda tibbiyot fanlarining yaratilishi tarixi.....	108
Bakayev Najmiddin	
Didaktik o'yinlar bola faoliyatining asosiy vositasi sifatida.....	112
Egamova Madina Qobil qizi	
Tibbiyot oliy ta'lim muassasalari talabalarining konvergent-kreativ tafakkurini takomillashtirishning didaktik asoslari.....	116
Egamova Shukriya Amanovna	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida universal ta'lim faoliyatlari orqali tarbiyaviy maqsadlarga erishish imkoniyatlari	119
G'aybullayeva Nafisaxon Nosirjon qizi	
Matematika o'qitishning klassik metodlaridan zamonaviy usullarga o'tish	124
G'ofurov Jamoliddin Xusniddinovich	
Jahon miqyosida maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari	128
Hoshimova Dilnoza Boymirzoyevna, Mahmudova Zulfiya Homidovna	
Bo'lajak o'qituvchilarning prognostik kompetensiyasini rivojlantirish tamoyillari.....	131
Ikromova Munisa Sheraliyevna	
Bo'lajak muhandislarni kasbiy tayyorgarligini grafik ma'lumotlar asosida oshirishning didaktik asoslari	134
Jumanazarova Zuhra Qosimjonovna	
Sport va jismoniy tarbiya pedagogikasida innovatsion metodlar	138
Jumanova Iroda Shokirjon qizi	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish	141
Jumayeva Sarvinov Ilhombekovna	
Talabalarda nutqiy tarkibiy tuzilmalarni shakllantirish texnologiyasi	145
Kiyamova Maxbuba Sultanovna	
Innovatsion yondoshuv asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining fikrlash qobiliyatini rivojlantirishning amaliy jihatlarini	148
Mamadiyev Jamol	
Ingliz tili matnlarini o'rganishda 6-sinf o'quvchilarining grammatik kompetensiyasini oshirish va tatbiq qilishning samarali usullari.....	152
Sharipova Firuza Mehriddinovna	
Kar va zaif eshituvchi yuqori sinf o'quvchilarining axborot kompetensiyasini rivojlantirish modeli	155
Tursunov Hojiakbar Hamidullo o'g'li	
Maktabgacha ta'limda shaxsga yo'naltirilgan ta'lim – pedagogik muammo sifatida.....	159
Xallovkova Maksudaxon Ergashevna	
Altruistik xulq-atvorning shaxsiy va ijtimoiy determinantlari.....	162
Xatamova Ferangiz Ibodulloevna	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy-pedagogik mahoratini teatr pedagogikasi vositalari orqali rivojlantirishning xorijiy va milliy tajribasi	166
Xudoyberganova Matluba Qulsoxatovna	
Refleksiv yondashuvning ta'lim jarayonidagi o'rni va afzalliklari.....	170
Yodgorova Gulrux Farhodovna	
Совершенство методики формирования компетентности будущих студентов-искусствоведов в условиях цифрового образования.....	174
Юлдашев Эргаш Сабинович	
O'z-o'zini rivojlantirish tushunchasi va uning pedagogik mohiyati.....	177
Kudenov Temurbek Maxsetbaevich	
Boshlang'ich sinf o'qish darslarida hikoya janrini o'qitishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish dolzarb muammo sifatida	180
Ergasheva Shoxida Nurmuxammadovna	
Ingliz tili darslarini interaktiv tashkil etishda raqamli ta'lim vositalarining o'rni va metodik yondashuvlar	185
Raxmatullayeva Barno Baxtiyor qizi	
The Effectiveness of Using Podcasts to Enhance Listening Comprehension and Vocabulary Acquisition in Secondary School English Classes	189
Meliboyev Zuxriddin Isroil ugli	

O'zbekiston tarixi darslarida pedagogik improvizatsiyani texnologiyalashtirish va raqamlashtirish imkoniyatlari	192
Ergasheva Muhayyoxon G'anijonovna	
Tasviriy faoliyat vositasida maktabgacha yoshdagi bolalarning badiiy-ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishning samaradorligi.....	196
Arslanova Umidaxon Komiljon qizi	
Baxtli pedagoglar sirlari yoki kasbdagi subyektiv farovonlik	201
Adilova Zulfiya Djavdatovna	
Ayollarning siyosiy faolligini oshirishda gender kvotalarining o'rni	204
Abdukaxorova O'g'iloy Isroiljon qizi	
The Content of Developing Students' Communicative Culture Through a Bilingual Approach	207
Abdukhaliyeva Feruzakhon Ulugbek kizi	
Maktabgacha yoshdagi nutqida kamchiligi bo'lgan bolalar so'zlashuv nutqini shakllantirishda o'yin texnologiyalaridan foydalanish ahamiyati.....	210
Abdullayeva Ugiloy Djurayevna	
Chet tili intellektual va kasbiy rivojlanish kaliti	214
Aripova Sayida Abdulatovna	
Raqamli etiket: zamonaviy ta'limda yangi madaniyat talabi	217
Rasuljon Atamuratov	
Raqamli xiyonat: zamonaviy munosabatlar va sodiqlik inqirozi.....	221
Azizova Shodiya Utkur qizi	
Badiiy tarjimada leksik birliklarning lingvomadaniy aspektlari	224
Mardiyeva Maxbuba Shavkatovna	
O'quvchilarda funksional savodxonlikni rivojlantirishga yo'naltirilgan dasturiy platformani pedagogik loyihalash.....	228
Obloqulov Sulaymon Maxmayusuf o'g'li	
Kurashchilar orasida jarohatlarning oldini olish: reabilitatsiya va profilaktik uslublar	232
Ochilova Sarvinoz Salim qizi	
Xalq og'zaki ijodi vositasida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini o'quvchilarning o'qish savodxonligini rivojlantirishga tayyorlashning pedagogik-psixologik jihatlari	236
Oxunova Nozimaxon Mirzag'ulom qizi	
Loyiha asosidagi o'qitish orqali yoshlarda liderlik qobiliyatini rivojlantirish usullari.....	239
Risvayeva Charos Zaydilla qizi	
Maktabgacha yoshdagi bolalarga ingliz tilini o'yinlar vositasida o'rgatishga qaratilgan mashq va topshiriqlarning samaradorligi.....	242
Toshniyozova Dildora, Meliyeva Nargizaxon	
Bo'lajak o'qituvchilarni tarixiy va ma'naviy ideallarga aksiologik munosabatini rivojlantirish modeli	245
Tursunova Dilnoza Adhamjon qizi	
Shaxs rivojlanishida pedagogika va psixologiyaning o'rni	248
Umirova Guldon Jamoliddin qizi	
Toshkent shahri havosi ifloslanishining sabablari va oldini olish choralari	251
Ungalov Akmal Navruzovich	
Sun'iy intellekt asosida tuzilgan interaktiv platformalar va ulardan foydalanuvchi tajribasi	254
Xabirova Zulfiya Anvarbekovna	
Talabalar ijtimoiy faollik indeksini rivojlantirishda tyutorlik faoliyatining o'rni va ahamiyati	257
Xamrakulov Jasurbek Muxammadjon o'g'li	
Hozirgi davr pedagogikasida sharqona ta'limning ahamiyati.....	260
Yuldasheva Mastura Islamovna	
Пословицы и поговорки как отражение картины мира	263
Алламбергенова Шахноза Садатдиновна	
Raqamlashtirish sharoitida talabalarning mustaqil ta'lim olish kompetensiyasini rivojlantirishda mustaqil ta'limning o'rni	268
Abdumannopov Muhammadsahib Muhammadyusuf o'g'li	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini kasbiy-kreativ kompetensiyalarini rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlar.....	272
Khadicha Mukhamadiyeva Karomatovna	



Zamonaviy didaktik yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarning analitik va ijodiy ko'nikmalarini rivojlantirish.....	277
Mo'minova Gulhayo Turg'unboy qizi	
Kompetensiyaviy yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarni tyutorlik faoliyatiga tayyorlashning pedagogik shart-sharoitlari	280
O'rinova Nilufar Muhammadovna	
Aholi o'rtasida yoshlarning pedagogik intervensiyalar orqali ilmiy faolligini oshirish va sog'lom turmush tarzini shakllantirish metodikasi.....	286
Raximov Xasanboy Kamoliddin o'g'li	
Buyuk ipak yo'li – yangi geosiyosiy va iqtisodiy aloqalarning tarixiy asosi sifatida	290
Tugalova Madina Erkin qizi	
Ilk maktabgacha yoshdagi bolalarda sensor tarbiya.....	293
Umarova Muyassarxon A'zamjonovna	
Rus tilida o'qish ko'nikmalarini rivojlantirishning nazariy-metodik asoslari	297
Xanova Dilrabo	
Didactic Possibilities of Teaching English in Primary Schools Based on 3D Interactive Technologies	303
Kholiqova Lutfiya Umurzoqovna	
Raqamli dasturiy vositalari asosida organik kimyo fanini o'qitish jarayonlarini loyihalashtirish modeli	306
Ametova Guljamila Elbrusovna	
Talabalarda informatsion-analitik kompetentlikni rivojlantirishning amaliy asoslarini takomillashtirish	310
Baydjanov Bekzod Xaitboyevich	
Aksiologik yondashuv asosida o'quv mashg'ulotlarini tashkil etishning til o'rganish jarayonidagi ahamiyati.....	314
Choriyeva Feruza Amrullayevna	
Ibrayim Yusupovning "Saksovu" she'rini o'qitish metodikasi	317
Darmonov Allayar Abdilxaq uli	
Innovatsion ta'lim sharoitida talabalarning madaniyatlararo kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasi....	320
Ergasheva Anbar Shaymardan qizi	
Oiladagi zo'ravonlik: sabablari, oqibatlar va psixologik yondashuvlar	324
Jo'rayeva Kaniza Akbarali qizi	
Darsda talabalar nutqiy qobiliyatini shakllantirish masalalari.....	329
Kamoliddinova Maftuna Xusniddin qizi	
Nodavlat ta'lim tashkilotlari o'quvchilarida kreativlikni shakllantirishni boshqarish	334
Nasriddinov Xasan Baxtiyor o'g'li	
Nutq nuqsoniga ega bolalarni maktabga tayyorlashda psixologik aspektlar va pedagogik yondashuvlar ...	339
Normatova Maftuna Kengash qizi, Kamolova Gulshoda Jobir qizi	
Talabalarni ma'naviy tarbiyalash diagnostikasining psixologik va pedagogik manbalardagi talqini	346
Saotmuratova Zebo Yuldash qizi	
OTM talabalarning tanqidiy fikrlashini rivojlantirishning tashkiliy va pedagogik shart-sharoitlari.....	350
Tokumbetova Mexribonu Shavkat qizi	
Ma'naviy yetuklik sari: jadid adabiyotining o'rni.....	356
Abdullayev Ro'zimuxammad Akramjon o'g'li	
Nemis tilida derivatsion leksik birliklarning o'qitishning lingvodidaktik asoslari	361
Abduraxmanov Sirojiddin Muminkulovich	
Bo'lajak o'qituvchilarda baholash madaniyatini shakllantirish: adolatli, obyektiv va motivatsiyalovchi baholashga tayyorlash	365
Boymirzayev Farxodjon Raxmatjon o'g'li	
Maktab ta'limida ko'paytirishning qulay usullari.....	371
Ergasheva Shahlo Shoabdullo qizi	
Sensor integratsiya buzilishlari bolaning nutq, harakat va hissiy rivojlanishiga ta'siri	375
Isayeva Mushtariy Alisher qizi	
Inson jamiyatdagi ish faoliyatida va psixologiyasida sportning o'rni.....	378
Isoqov Nuriddin Halim o'g'li	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini integrativ o'qitishga metodik tayyorgarligini takomillashtirish	382
Jo'rayeva Nargiza Jamolidinovna	
Обучение дошкольников иностранному языку в различных видах неречевой деятельности	386
Марасулова Доно Нигматуллаевна	

Til o'rgatishda matnning didaktik va kommunikativ ahamiyati	389
Ungarbayeva Ayman Davletbayevna	
Munavvarqori Abdurashidxonov – jadidchilik harakatining ma'rifatparvar yo'lboshchisi	393
Xasanboyeva Ruxshona Nurmatjon qizi	
Dars jarayonida o'quvchilarning tanqidiy fikrlashini shakllantirish	396
Yulchiyeva Shoxsanam	
Особенности использования современных педагогических технологий в преподавании естественных наук в общеобразовательной школе	399
Мажидова Мадина Фархадовна, Мажидов Шерзод Фархадович	
Повышение информационной грамотности и формирование информационной культуры студентов в среде дистанционного обучения.....	403
Р. К. Аюезова	
Воздействие медиа в контексте социального формирования личности.....	407
Хайдарова Гулинур Нурбек кизи	
Теоретические основы развития интеллектуальных способностей студентов	411
Чинкулова Гулмехра Бахроновна	
O'qituvchining o'z darsini tahlil qilishi: tajriba va amaliyot	417
Djuraboyev Maqsudbek Karimbek o'g'li	
Innovatsion yondashuv asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini rivojlantirishda ma'naviy-axloqiy tadbirlarning o'rni	423
G'aybullayeva Sabohat Ulug'bek qizi, Karshiyev Jaxongir Abdirayimovich	
Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining adabiy kompetensiyalarini rivojlantirishda matn ustida ishlashning ahamiyati.....	426
Islomova Xafiza Azamatovna	
O'quvchilarda estetik qobiliyatlarni shakllantirishda xalq og'zaki ijodining tarbiyaviy-metodik salohiyati	430
Kaxarova Gulnora Sa'dullayevna	
Boshqaruv kompetentligi tushunchasining pedagogik psixologik va menejment sohalaridagi ilmiy asoslari va evolyutsiyasi.....	434
Mamatqulova Kimyoxon Abduljalilovna	
Muhandislik ta'limida zamonaviy kompyuter grafikasi vositalari yordamida talabalarning konstruktorlik faoliyatini rivojlantirish.....	438
Muxitdinov Abdurahob Abduvalievich	
Turizm sohasiga oid terminlarni o'qitishda axborot texnologiyasi orqali takomillashtirish	442
Nishanova Hafiza Vafogulovna	
Ilmiy maqola yozish kompetensiyasini rivojlantirishda statistik metodlarni integratsiyalashning ta'limiy samaradorligi	446
Rahimova Indira Quddrat qizi	
Sotsiologiyatning asosiy tushunchalari va konsepsiyalari	451
Rustamova Mohimbonu Maxammadjon qizi	
Pedagogik mahoratni baholashda O'zbekiston va Kanada tajribasining qiyosiy tahlili	455
Tursinova Zoxida Sharabidinovna	
Basketbolning insonning jismoniy va kognitiv rivojlanishiga ta'siri: ilmiy tahlil.....	463
Umarjanov Alimardon Alisher o'g'li	
Talaba qizlar psixik salomatligi xususiyati deviant xulq-atvorni keltirib chiqaruvchi omil sifatida.....	466
Xasanova Mashxura Abduvalievna	
Ta'lim jarayonida o'yinlardan samarali foydalanish texnologiyasi.....	471
Ortiqova Yulduz Akram qizi	
Innovatsion ta'lim muhitida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy-pedagogik mahoratini teatr pedagogikasi vositalari orqali rivojlantirish	475
Xudoyberganova Matluba Qulsoxatovna	



TALABA QIZLAR PSIXIK SALOMATLIGI XUSUSIYATI DEVIANT XULQ-ATVORNI KELTIRIB CHIQUARUVCHI OMIL SIFATIDA

Xasanova Mashxura Abduvalievna

Toshkent davlat tibbiyot universitetining

Yoshlar bilan ishlash, ma'naviyat va ma'rifat bo'limi boshlig'i

Annotatsiya: Inson psixologik salomatligini shakllantirish muammosi zamonaviy tadqiqotchilarning ilmiy qiziqishlarini keltirib chiqarmoqda. Buning sababi talabalarning aqliy rivojlanishini optimallashtirish usullari va vositalarini, shuningdek, ijtimoiy muhitga muvaffaqiyatli moslashish uchun psixologik sharoitlarni yaratish zarurati bilan bog'liq. Psixologik salomatlik – insonning shaxsiy potentsialini ro'yobga chiqarishga imkon beradigan, uning subyekt sifatida ijtimoiy muhitga muvaffaqiyatli moslashuvini ta'minlovchi muhim ichki shartdir.

Kalit so'zlar: psixologik salomatlik, talaba, ta'lim-tarbiya, deviant xulq, stress, depressiya, ijtimoiy muhit, oila, ota-ona, himoya mexanizmlari, o'zini o'zi baholash.

Abstract: The problem of forming human psychological health arouses the scientific interest of modern researchers. This is due to the need to search for ways, methods, and tools to optimize students' mental development, as well as to create psychological conditions for their successful adaptation to the social environment. Psychological health, as a state of a person's subjective well-being that allows them to realize their personal potential, is an important internal condition for a successful adaptation to the sociocultural environment.

Key words: psychological health, student, education, deviant behavior, stress, depression, social environment, family, parents, defense mechanisms, self-esteem.

Аннотация: Проблема формирования психологического здоровья человека вызывает научный интерес современных исследователей. Это связано с необходимостью научного поиска путей, методов и средств оптимизации психического развития студентов, а также создания психологических условий для их успешной адаптации к социальной среде. Психологическое здоровье, как состояние субъективного благополучия человека, позволяющее ему актуализировать свой личностный потенциал, является важным внутренним условием успешной адаптации человека к социокультурной среде.

Ключевые слова: психологическое здоровье, студент, образование, девиантное поведение, стресс, депрессия, социальная среда, семья, родители, защитные механизмы, самооценка.

KIRISH

Hozirgi kunda yoshlar psixik salomatligi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi va jamiyatning izchil rivojlanishining eng muhim omillaridan biridir. Yoshlarning psixik salomatligini mustahkamlash bilan bog'liq vazifalar nafaqat ushbu sohaga taalluqli omillarni tadqiq etishni, balki psixik salomatlikni saqlash, turli psixik buzilishlarning oldini olish va ularni bartaraf etishni ham o'z ichiga oladi.

Ushbu mavzu o'ta murakkab va dolzarb bo'lib, talabalarning psixik salomatligi bilan ularda deviant xulq-atvor shakllanishi o'rtasidagi bog'liqlikni tadqiq etish oliy ta'lim muassasalaridagi pedagog va psixologlar uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Ayni paytda talaba qizlarning psixik salomatligi, shuningdek, deviant xulq-atvorning kelib chiqishiga olib keluvchi omillar ilmiy tadqiqot predmeti sifatida muammoning dolzarbligini belgilab bermoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

1948-yilda Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST) Nizomining muqaddimasida keltirilgan ta'rifga ko'ra, sog'liq – bu nafaqat kasallik yoki jismoniy nuqsonlarning yo'qligi, balki to'liq jismoniy, aqliy va ijtimoiy farovonlik bilan ajralib turadigan odamning holatidir. JSST ta'rifiga ko'ra, psixik salomatlik – bu insonning o'z imkonlari-



yatlarini amalga oshirish, stressni yengish, samarali mehnat qilish va jamiyat hayotiga o'z hissasini qo'shish qobiliyatidir. Bu nafaqat ruhiy kasallikning yo'qligini, balki kognitiv, hissiy va ijtimoiy ko'nikmalarni ham o'z ichiga olgan ijobiy holatdir. Shaxsning asosiy va inkor qilib bo'lmaydigan xususiyati – bu o'zini anglash, ya'ni tashqi dunyodan ajralish qobiliyatidir. Shu ma'noda, chaqaloq o'ziga xos va betakror individ hisoblanadi, ammo hali to'liq shakllangan shaxs emas. 2,5–3 yoshdan boshlab bola o'zini anglay boshlaydi, hissiyotlarini farqlaydi, o'z xatti-harakatlarini baholaydi. Bu xususiyatlar maktabgacha va maktab yoshida jadal rivojlanadi. Bola dunyo va o'z shaxsiyati haqida tasavvur hosil qiladi. Bu jarayon, avvalo ota-onalar bilan majburiy o'zaro ta'sir doirasida kechadi. Shu bois, bolaning kelajagi ota-onaning uning shaxsiyatiga qanday darajada jiddiy, hurmat bilan va samimiy munosabatda bo'lishiga bevosita bog'liqdir. D.N. Xlomov va E.R. Kaliteevskayalarning fikricha, psixik salomatlik – bu o'zgaruvchan dunyoda o'z hayotining subyekti sifatida harakat qilib, insonning biologik, ijtimoiy va psixologik determinizmidan tashqariga chiqish qobiliyatidir. Rossiyalik olim V.Yu. Zavyalovning ta'kidlashicha, psixik salomatlik – bu beqaror muvozanat holati yoki taxmin qilingan muvozanat nuqtasi atrofida ozgina tebranishlardir. Muvozanatning markazi ongga, tanaga yoki psixikaga bog'liq emas. Psixik sog'lom inson undan vaqtincha og'ishi mumkin, lekin ma'lum vaqtdan keyin me'yordagi holatiga qayta oladi. Bunday me'yordan chiqmaslik, muvozanat holatiga qaytish qobiliyati quyidagi omillarga bog'liq: ta'lim, tarbiya, jismoniy salomatlik. Inson o'zini nazorat qilish va o'zini kuzatish ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak. Zamonaviy psixologiyaga "psixologik salomatlik" tushunchasini I.V. Dubrovina kiritgan.

Bu tushuncha "psixik salomatlik" tushunchasiga qarama-qarshi emas, balki u bilan uzviy bog'liqdir. Olimaning ta'kidlashicha, "agar 'psixik salomatlik' atamasi birinchi navbatda individual aqliy jarayonlar va mexanizmlarga tegishli bo'lsa, 'psixologik salomatlik' esa umuman shaxsga xos bo'lib, uning eng yuqori ko'rinishlari bilan chambarchas bog'liqdir. Bu tushuncha inson ruhining psixologik, tibbiy, ijtimoiy, falsafiy va boshqa jihatlaridagi tafovutni ajratib ko'rsatishga imkon beradi". Agar psixik salomatlik psixikaning tabiiy rivojlanishi bilan bog'liq bo'lsa, psixologik salomatlik – bu shaxs rivojlanishi va uni ijtimoiy sharoitlarda faoliyat yurituvchi subyekt sifatida tarbiyalash bilan bog'liqdir. "Psixologik salomatlik" atamasi insonning jismoniy va psixik ajralmasligini ta'kidlaydi.

I.V. Dubrovina psixologik salomatlikni quyidagicha tavsiflaydi: inson o'z bilgan va boshdan kechirayotgan dunyoda o'z nuqtai nazaridan munosib o'rin egallaydi. Bu – hayotga bo'lgan qiziqish, fikr erkinligi, tashabbus, ilmiy va amaliy sohalarga qiziqish, faollik, mustaqillik, javobgarlik, tavakkal qilish qobiliyati, o'ziga ishonch, o'ziga xoslikdan quvonchli hayrat, ijodkorlik va sh.k. kabi fazilatlarni o'z ichiga oladi. Masalan, ta'lim ta'siri ostida boshlang'ich maktab yoshidagi bolalarning aqliy rivojlanishida sezilarli o'zgarishlar yuz beradi. Bu o'zgarishlar ularni o'smirlikka, hayotda javobgarlik bosqichiga tayyorlaydi.

A.V. Shuvalov psixologik salomatlikni hayot individualligi doirasida subyektiv voqelikning normal rivojlanishi jarayoni va natijasi sifatida tavsiflaydi. U me'yorni "tegishli rivojlanish sharoitida ma'lum bir shaxs uchun muayyan yoshda mumkin bo'lgan eng yaxshi holat" deb talqin etadi. Bolalar psixologi O.V. Xuxlaeva esa psixologik salomatlikni tavsiflovchi asosiy tushuncha sifatida "uyg'unlik" so'zini ilgari suradi. Bu insonning hissiy va intellektual, jismoniy va aqliy tomonlari, inson va uning atrofidagi odamlar, tabiat hamda makon o'rtasidagi muvozanatni o'z ichiga oladi. Olimaning fikricha, psixologik salomatlik – bu shaxs va jamiyat ehtiyojlari o'rtasidagi uyg'unlikni ta'minlaydigan, shaxsning hayotiy vazifalarni bajarishga yo'naltirilgan ruhiy xususiyatlarining dinamik majmuasidir. Psixologik salomatlik mezonlari sifatida quyidagilar ko'rsatilgan: o'zini ijobiy his qilish (ijobiy hissiy fon), atrofni ijobiy idrok etish, yuqori darajadagi aks ettirish, yoshga bog'liq inqirozlarni muvaffaqiyatli yengish, jamiyatga muvaffaqiyatli moslashish, asosiy faoliyat samaradorligini oshirish istagi, ijtimoiy va oilaviy rollarni bajara olish qobiliyati.

I.I. Galiskaya psixologik salomatlikni ijtimoiy, hissiy va ma'naviy farovonlik timsoli deb biladi. U psixik salomatlik tarkibiga psixologik salomatlikni ham kiritadi. I.V. Dubrovina fikriga ko'ra, psixik salomatlik quyidagilarni o'z ichiga oladi: ruhiy salomatlik shaxsning to'liq aqliy rivojlanishi natijasidir; inson o'z shaxsiy rivojlanish xususiyatlarini anglashi; ongli yondashuv va shaxsiy fazilatlarni qabul qilish; insonparvarlik va keng dunyoqarash bilan tavsiflanish. N.N. Kolotiyning fikricha, psixik salomatlik – bu shaxs rivojlanishining sifat jihatlarini belgilovchi tizimdir. U har qanday yosh bosqichida rivojlanish sifatini "kesib olish" imkonini beruvchi ko'rsatkich sifatida ta'riflanadi. Psixik salomatlik – bu shaxsning jamiyat bilan munosabatlari, o'zini boshqarish va rivojlantirishdagi holatidir. V.G. Petrov va K.V. Zligostev psixik salomatlikni ikki jihatdan ko'rib chiqadilar:

- 1) ma'lum bir holat natijasi sifatida;
- 2) shaxs rivojlanishini ta'minlovchi psixologik imkoniyatlar sifatida. Ular bu salomatlik tarkibiga intellektual, hissiy, ma'naviy, axloqiy, ijtimoiy va ijodiy imkoniyatlarni kiritadi. Bu komponentlar doimiy yoki vaziyatga qarab namoyon bo'lishi mumkin.

Boshqa mualliflar esa psixik salomatlik mezonlari sifatida quyidagilarni ajratadi: yaxshi rivojlangan aks ettirish, stressga chidamlilik, qiyin vaziyatlarda imkoniyatlarni topa olish, shaxsning hissiy va xulqiy butunligi, ichki barqarorlik, o'zini qabul qilish va boshqalarga zarar yetkazmasdan qiyinchiliklarni yengish, o'z-o'ziga ob'yektiv munosabat.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Psixik salomatlik va deviant xulq-atvor o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash va tahlil qilishda zamonaviy psixologik, pedagogik hamda sotsiologik tadqiqotlar natijalari muhim manba sifatida xizmat qiladi. Bu boradagi ilmiy ishlar tahlili shuni ko'rsatadiki, mazkur bog'liqlikni o'rganishda ko'plab ichki va tashqi omillar, individual va ijtimoiy muhitga oid sabablar tahlil qilinadi. Jumladan, birinchi navbatda, tashkilot va pedagogik muhit bilan bog'liq omillar talabani ruhiy holatiga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi omil sifatida ko'riladi. Oliy ta'lim muassasasida ta'lim jarayonining tashkiliy tuzilishi, o'quv yuklamalarining miqdori, baholash mezonlari, nazorat shakllari, pedagoglarning psixologik yondashuvi, o'quv dasturlarining murakkabligi talabalarda stress holatini kuchaytirishi mumkin. Bu esa, o'z navbatida, psixik salomatlik muvozanatining buzilishiga olib kelishi va deviant xulq-atvorga zamin yaratishi ehtimolini kuchaytiradi.

Shuningdek, ijtimoiy muhit va oilaviy omillar ham psixik salomatlik shakllanishining eng muhim determinantlaridan biri sifatida e'tirof etiladi. Talabani oila a'zolari bilan bo'lgan munosabatlari, ayniqsa ota-onaning hissiy yondashuvi, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash darajasi, oilaviy nizolar, iqtisodiy qiyinchiliklar, befarqlik yoki haddan tashqari nazorat qilish kabi holatlar yosh insonning ruhiy barqarorligiga bevosita ta'sir etadi. Bu esa, o'z navbatida, uning ijtimoiy muhitdagi moslashuvchanligini pasaytirib, tajovuzkorlik, isyonkorlik, o'zini izolyatsiya qilish yoki befarqlik kabi deviant xatti-harakatlarning yuzaga chiqishiga olib kelishi mumkin.

Bundan tashqari, zamonaviy ijtimoiy-siyosiy sharoitlarda jamiyat tomonidan yosh avlodga qo'yilayotgan yuqori talablar, raqobatbardosh bo'lish zarurati, ta'lim tizimida jahon standartlariga erishish maqsadida kiritilgan qat'iy mezonlar, ko'p bosqichli testlar va tanlovli baholash tizimi talabalarning ruhiy bosimini oshiradi. Bu holat, ayniqsa, qizlar orasida o'z-o'ziga ishonchsizlik, depressiv holatlar, xavotirli holatlarning kuchayishi va ijtimoiy izolyatsiyaga intilish kabi alomatlar bilan namoyon bo'ladi. Bunday sharoitda deviant xulq-atvor himoya reaksiyasi sifatida yuzaga chiqishi ehtimoldan holi emas.

So'nggi yillarda olib borilgan ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, talabalarning psixik salomatligiga ta'sir etuvchi omillarni tizimli o'rganish zarurati ortib bormoqda. Psixoterapevtlar, amaliy psixologlar, ijtimoiy pedagoglar va boshqa soha mutaxassislari tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlar ushbu masalaning ko'lamini chuqur yoritadi. Biroq, bu sohada hali ham yechimini kutayotgan muammolar mavjud: ilmiy ishlanmalar yetarli darajada raqamlashtirilmagan, metodik yondashuvlar turlicha, ommaviy tadqiqotlar yetarli emas, va mavjud natijalar amaliyotga to'liq joriy qilinmagan. Shu sababli, ushbu yo'nalishda olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlarni chuqurlashtirish, mavjud tahliliy modellarning o'zaro solishtirma tahlilini amalga oshirish, mahalliy va xorijiy tajribalarni integratsiyalash – dolzarb masala bo'lib qolmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi sifatida ushbu ishda nazariy adabiyotlar tahlili, mavjud empirik tadqiqotlarning natijalari, O'zbekiston va xorijiy mamlakatlarda o'tkazilgan ilmiy izlanishlar, soha mutaxassislari fikrlari, statistik ma'lumotlar hamda amaliy holatlar o'rganiladi. Shu bilan birga, zamonaviy psixologik baholash usullari, testlar, diagnostik kartalar, so'rovnomalar, kuzatuv, suhbat, kontent-tahlil va ekspert intervyu usullari ham qo'llanilishi rejalashtirilgan. Tadqiqot doirasida olingan ma'lumotlar statistik jihatdan tahlil qilinib, ularning asosida talabayoshlar orasida psixik salomatlikni mustahkamlash hamda deviant xulq-atvorni oldini olishga qaratilgan taklif va chora-tadbirlar ishlab chiqiladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Talaba qizlarning psixik salomatligi o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, bu holat ularning ijtimoiy roliga, yoshiga, shaxsiy rivojlanish bosqichiga hamda ta'lim muhitiga moslashuv darajasiga bevosita bog'liqdir. Psixik salomatlik tushunchasini tahlil qiladigan bo'lsak, u insonning ruhiy, emotsional va ijtimoiy holatining muvozanatli darajasidir. Bu holat shaxsning hayotga moslashuvi, stress omillariga qarshi turishi, ijtimoiy faoliyatni samarali amalga oshirishi, qaror qabul qilish va o'z-o'zini anglash darajasi bilan belgilanadi. Ayniqsa, talaba qizlar hayotida o'qish bosimi, ijtimoiy munosabatlar, shaxsiy va oilaviy muammolar, kelajakka oid noaniqliklar, gender rollarga oid ijtimoiy stereotiplar bilan bog'liq stress omillari tez-tez uchraydi. Bu omillar ularning ruhiy holatiga bevosita ta'sir ko'rsatishi, psixik salomatlikda muayyan iz qoldirishi va ba'zi hollarda bu salbiy ta'sirlar deviant xulq-atvor shaklida namoyon bo'lishi mumkin. Psixik salomatlikning buzilishi depressiya, tashvish, doimiy stress holati, o'zini noadekvat baholash, ijtimoiy izolyatsiya, qo'rquv, xavotir va ruhiy cho'kish holatlari orqali ifodalanadi.

Shaxs psixik salomatligi darajasi va uning xatti-harakati, jamiyat oldidagi javobgarlik hissi o'rtasida bevosita uzviy bog'liqlik mavjud. Psixozanaliz asoschisi Z. Freyd fikricha, axloqiy tamoyillarga rioya qilgan shaxs psixologik jihatdan sog'lom bo'ladi, holbuki axloqiy cheklovlardan yiroqlashish psixik nomutanosiblikka olib keladi. Deviant xulq-atvor bu – jamiyat tomonidan qabul qilingan me'yor va qoidalarga zid bo'lgan, ijtimoiy tartibni buzuvchi harakatlar majmuasidir. Talaba qizlar orasida deviant xatti-harakatlar turlicha ko'rinishda namoyon bo'lishi mumkin: darslarni tashlash, akademik intizomsizlik, salomatlikka zarar yetkazuvchi odatlar (masalan,



spirtli ichimliklar iste'moli, tamaki chekish), ijtimoiy izolyatsiyaga intilish, o'zini-o'zi jazolashga moyillik, haddan tashqari impulsivlik va muvofiqlashtirilmagan xatti-harakatlar bunga misoldir.

Deviant xulq-atvoriga olib keluvchi omillar qatoriga birinchi navbatda psixik salomatlik bilan bog'liq ichki omillar kiradi. Bular orasida depressiya, tashvish, doimiy stress, ruhiy bosimlar, hissiy notinchlik asosiy sabablar sifatida qayd etiladi. Shuningdek, ijtimoiy muhitdagi ziddiyatlar – oilaviy nizolar, do'stlar bilan bo'lgan munosabatlardagi qiyinchiliklar, o'quv jarayonidagi muvaffaqiyatsizliklar, ustozlar bilan ziddiyatli muloqot – bularning barchasi talaba qizlarni psixologik jihatdan beqarorlashtirishi mumkin. Shaxsiy xususiyatlar darajasida esa past o'zini baholash, o'ziga bo'lgan ishonchsizlik, empatiya darajasining pastligi, ijtimoiy va kommunikativ ko'nikmalarning rivojlanmaganligi deviant xatti-harakatlarning rivojlanishiga imkon yaratadi. Bunga qo'shimcha ravishda, ijtimoiy-iqtisodiy holat, ya'ni moddiy yetishmovchilik, ijtimoiy adolatsizlikka bo'lgan e'tiborning sustligi, kelajakka bo'lgan ishonchsizlik, barqarorlik yetishmasligi – bularning barchasi shaxsda xavotirli, beqaror xulqni yuzaga keltirishi mumkin. Psixologik omillar qatoriga esa o'z-o'zini nazorat qilish qobiliyatining pastligi, impulsivlik, affektiv notekislik, qaror qabul qilishdagi sustlik, vaziyatga moslashuvchanlikning pastligi kiradi.

Talaba qizlar orasida deviant xulq-atvorning oldini olish va ularning psixik salomatligini mustahkamlash uchun bir nechta kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir. Jumladan, oliy ta'lim muassasalarida faol ishlaydigan psixologik xizmatlar tizimini takomillashtirish, konsultativ yordamni erta aniqlash mexanizmlariga asoslangan tarzda tashkil qilish lozim. Talabalar orasida ijtimoiy muhitni sog'lomlashtirish, jamoada o'zaro hurmat, ishonch va qo'llab-quvvatlash tamoyillarini mustahkamlash kerak. Stressni boshqarish va muammolarni hal qilish bo'yicha zamonaviy koping-strategiyalarni o'rgatish, ya'ni o'z holatini anglash, mantiqiy fikrlash, hissiy muvozanatni saqlash, muammoni hal qilishning faol yo'llarini qo'llay olish qobiliyatini shakllantirish talab qilinadi. Ota-onalar bilan hamkorlik, psixologik maslahatlar, seminarlar, ota-onalar uchun treninglar va monitoringlar orqali ularning roli kuchaytirilishi lozim.

Shuningdek, talaba qizlarda texnologiyadan foydalanish madaniyatini shakllantirish, ijtimoiy tarmoqlardan oqilona va me'yorida foydalanishga o'rgatish, virtual dunyo va real hayot o'rtasidagi muvozanatni saqlashga ko'maklashish ham muhim omildir. Psixologik jihatdan zaif guruhdagi talabalarga ijtimoiy yordam ko'rsatish, ya'ni ularning yaqinlari, do'stlari bilan muloqot o'rnatish, o'z-o'zini hurmat qilishni oshirish, o'z shaxsiga ijobiy munosabatni shakllantirish va hamdardlik ko'nikmalarini rivojlantirish talab etiladi. Bu yo'nalishda faol muammolarni hal qilishga yo'naltirilgan strategiyalarni rivojlantirish, zaif himoya strategiyalarini tuzatish, ya'ni qochish, inkor qilish kabi yondashuvlar o'rniga konstruktiv strategiyalarni shakllantirish, o'zini-o'zi nazorat qilish, tahliliy fikrlashni kuchaytirish kerak bo'ladi.

Jamiyatda kechayotgan ijtimoiy-madaniy transformatsiyalar natijasida dunyoqarash ideallarining o'zgarishi sharoitida, bir tomondan, milliy identifikatsiyani asrab qolish, ikkinchi tomondan esa har bir O'zbekiston fuqarosining shaxsiy salohiyatini to'laqonli ro'yobga chiqarish, ayni davrning strategik maqsadlaridan biridir. Bu esa, o'z navbatida, kelajakka oid mazmunli, barqaror va yo'naltirilgan g'oyalarni shakllantirish, shaxsiy maqsadlar va jamiyat manfaatlarini o'rtasida uyg'unlikni ta'minlash orqali amalga oshiriladi.

XULOSA

Olib borilgan tadqiqotlar va tahlillar asosida shuni ta'kidlash mumkinki, talaba qizlarning psixik salomatligi ularning ijtimoiy moslashuvi, o'quv jarayonidagi faolligi, o'z-o'zini anglashi hamda ruhiy barqarorligining asosiy mezonidir. Aynan psixik salomatlik darajasi talabaning stressli vaziyatlarga bo'lgan munosabati, qaror qabul qilish sifati va ijtimoiy xatti-harakatlarining shakllanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, psixik salomatlikda kuzatiladigan muvozanatsizlik holatlari – ya'ni depressiv holat, tashvish, o'z-o'zini noadekvat baholash, izolyatsiyalashgan holat va affektiv beqarorliklar – talaba qizlar orasida deviant xulq-atvor shakllarining namoyon bo'lish ehtimolini oshiradi.

Deviant xatti-harakatlar esa o'z navbatida, talabaning shaxsiy salohiyatini ro'yobga chiqarishiga, ijtimoiy rolini samarali bajarishiga va ta'lim sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Tahlillar asosida aniqlanishicha, deviant xulq-atvorni keltirib chiqaruvchi asosiy omillar sifatida quyidagilar ajratib ko'rsatildi:

- oilaviy muammolar va hissiy qo'llab-quvvatlash yetishmasligi;
- psixologik stresslar va ijtimoiy bosim; o'z-o'zini nazorat qilish mexanizmlarining sustligi;
- kommunikativ va ijtimoiy ko'nikmalarning yetishmasligi;
- texnologik odatlarga bog'lanish va salbiy axborot ta'siri; hamda o'z shaxsiyatini to'liq anglay olmaslik.

Mazkur omillar kompleks tarzda ta'sir etar ekan, talaba qizlar orasida deviant xatti-harakatlarni erta aniqlash, psixik salomatlikni doimiy monitoring qilish va uni mustahkamlashga qaratilgan tizimli chora-tadbirlarni ishlab chiqish zarurati yuzaga chiqadi. Jumladan, oliy ta'lim muassasalarida psixologik xizmatlar faoliyatini takomillashtirish, konsultativ yordam mexanizmlarini kuchaytirish, stressga bardoshlilikni oshirishga yo'naltirilgan treninglar o'tkazish, o'ziga bo'lgan ishonchni rivojlantirishga xizmat qiluvchi tarbiyaviy-metodik yondashuvlarni joriy qilish muhim ilmiy-amaliy yo'nalishlardir.



Shuningdek, talaba qizlarning shaxsiy salohiyatini ro'yobga chiqarish, ularni ijtimoiy hayotga faol jalb qilish, texnologiyalardan foydali va me'yoriy foydalanish madaniyatini shakllantirish hamda oila-ta'lim muassasasi-jamiyat o'rtasidagi psixologik hamkorlikni mustahkamlash orqali psixik salomatlikni barqarorlashtirish mumkin. Xulosa qilib aytganda, psixik salomatlikni ijtimoiy barqarorlik va shaxsiy muvaffaqiyatning tayanchi sifatida talqin qilish va uni deviant xulq-atvorni bartaraf etuvchi profilaktik mexanizm sifatida qarash zamonaviy psixologik yondashuvning markaziy nuqtasidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Аскарлова, Н. А., & Рахимжонова, М. К. (2021). Психологических особенностей людей с соматическими заболеваниями. Polish Science Journal, (53).
2. Галецкая, И. И. (2015). Общая характеристика психологического здоровья и его основных критериев. Гуманитарные исследования, № 2(6), 66–69.
3. Дубровина, И. В. (2014). Практическая психология в лабиринтах современного образования: Монография. Москва: НОУ ВПО "МПСУ". – 464 с.
4. Калитиевская, Е. Р. (2010). Психическое здоровье как способ бытия в мире: от объяснения к переживанию. Психология с человеческим лицом, 230–238.
5. Лебедева, О. В. (2013). Проблема соотношения понятий "психическое здоровье" и "психологическое здоровье" в отечественной и зарубежной психолого-педагогической литературе. Вестник Нижегородского университета им. Н. И. Лобачевского, № 3(1), 33–37.
6. Колотий, Н. Н., & Цилюрик, С. Н. (2004). Особенности социально-психологической адаптации первоклассников к условиям обучения в динамике года. В: Здоровье, обучение, воспитание детей и молодежи в XXI веке: Материалы Межд. конгресса (12–14 мая 2004 г., Москва). Москва: ГУ Научный центр здоровья детей РАМН, 68–79.
7. Петров, В. Г., & Злыгостева, К. В. (2015). Счастье и психологическое благополучие в структуре ресурсной модели психологического здоровья. Бюллетень ВСНЦ СО РАМН, № 4(104), 79–83.
8. Хухлаева, О. В. (2001). Основы психологического консультирования и психологической коррекции. Москва: Академия. – 208 с.
9. Шувалов, А. В. (2009). Психологическое здоровье человека. Вестник ПСТГУ IV: Педагогика. Психология, № 4(15), 87–101.
10. Abdivalyevna, A. N. (2023). Psychoprophylaxis of Depressive Situations in Crisis Situations. Eurasian Journal of Learning and Academic Teaching, 21, 1–4.
11. Abdivalyevna, A. N., & Farmonova, E. (2024). Characteristics of the Development of Cognitive Processes in Primary School Students. International Journal of Advance Scientific Research, 4(03), 35–39.
12. Askarova, N. A. (2023). Psychological Interpretation of the Concept of Happiness. Eurasian Journal of Humanities and Social Sciences, 16, 3–6.
13. Abdivalievna, A. N., & Jaloliddin, A. (2025). The Impact of Gadgets in Sleep Psychology. Journal of Social Sciences and Humanities Research Fundamentals, 5(04), 84–88.
14. Askarova, N. A. (2024). Influence of Psychopathic Qualities of Parents on Mental Disorders in Children. American Journal of Social Sciences and Humanity Research, 4(10), 367–371.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №7

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.